



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

TARJIMALAR YUKSAK SAN'AT NAMUNASI VA MAHORAT MAKTABI

Kalandarov Aybek Ruzimbayevich

Urganch RANCH texnologiya universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada o'zbek mumtoz adabiy asarlarining ingliz tiliga tarjima qilinishi jarayoni chuqur tahlil qilinadi hamda tarjima yuksak san'at namunasi va tarjimon mahoratini shakllantiruvchi muhim maktab sifatida baholanadi. Mumtoz adabiyot namunalari, xususan, Alisher Navoiy ijodiga mansub asarlarda mujassam bo'lgan milliy-ma'naviy qadriyatlar, poetik obrazlar, ramziy ifodalar va badiiy-estetik vositalarni ingliz tilida qayta yaratish bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Tarjima jarayonida mazmun va shakl uyg'unligini saqlash, semantik aniqlik, stilistik moslik, ekvivalentlik va adekvatlik masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjimonning ijodiy yondashuvi, madaniyatlararo muloqotni ta'minlashdagi roli va badiiy tarjimaning o'zbek adabiyotini jahon miqyosida tanitishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tarjima san'ati, tarjimon mahorati, o'zbek mumtoz adabiyoti, ingliz tiliga tarjima, badiiy tarjima, ekvivalentlik, madaniyatlararo muloqot.

ПЕРЕВОДЫ КАК ОБРАЗЕЦ ВЫСОКОГО ИСКУССТВА И ШКОЛА МАСТЕРСТВА

Каландаров Айбек Рuzимбаевич

Ургенчский университет технологий RANCH, PhD, доцент

Аннотация

В данной научной статье рассматривается процесс перевода произведений узбекской классической литературы на английский язык с точки зрения художественного мастерства и профессиональной подготовки переводчика. Анализируются основные трудности передачи национально-культурной специфики, поэтических образов, символики и стилистических особенностей классических текстов на другом языке. Особое внимание уделяется проблемам эквивалентности, адекватности и сохранения художественно-эстетической ценности оригинала в переводе. Подчеркивается роль переводчика как творческой личности и посредника межкультурного диалога. В статье обосновывается значение художественного перевода в популяризации узбекской классической литературы и ее интеграции в мировое литературное пространство.

Ключевые слова: искусство перевода, мастерство переводчика, узбекская классическая литература, художественный перевод, английский язык, эквивалентность, межкультурная коммуникация.

TRANSLATION AS A MODEL OF HIGH ART AND A SCHOOL OF MASTERY

Kalandarov Aybek Ruzimbayevich

Urgench RANCH University of Technology, PhD, Associate Professor

Abstract

This article explores the translation of Uzbek classical literary works into English, interpreting translation as a refined form of art and a significant school of professional mastery for translators. The study focuses on the challenges of rendering national and cultural identity, poetic imagery, symbolism, and stylistic features of classical texts in the target language. Particular attention is paid to issues of equivalence, adequacy, semantic accuracy, and the preservation of

aesthetic value in literary translation. The role of the translator as a creative mediator in intercultural communication is emphasized. The article also highlights the importance of literary translation in promoting Uzbek classical literature and introducing it to the global literary community.

Keywords: art of translation, translator's mastery, Uzbek classical literature, literary translation, English language, equivalence, intercultural communication.

Tarjimalar yuksak san'at namunasi va mahorat maktabidir. Hech bir adabiyot faqat o'z doirasidagina, boshqa xalqlar adabiyotidan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri va aloqasi, avvalo, tarjima orqali amalga oshadi va bu jarayon bir adabiyotni boshqasi bilan boyitadi. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodi esa jahon so'z san'atining alohida sahifalarini tashkil etadi. Navoiy asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish jarayoni juda erta boshlangan. Jumladan, "Majolis un-nafois" asarini 1522–1523-yillarda Muhammad G'aznaviy, oradan yarim asr o'tgach esa Shoh bin Abdil Ali Nishopuriy fors-tojik tiliga tarjima qilgan. Alisher Navoiyning g'azal, ruboiy, qasida va, ayniqsa, dostonlari keng tarqala boshlagan sari, ularni o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bordi. Bu esa shoir asarlarining tili, poetik ifodalari, sharhi va izohiga bag'ishlangan lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Natijada shoir vafotidan ko'p o'tmay, XVI asrda Turkiyada "Badoye' ul-lug'at", "Lug'ati Navoiy", XVIII asrda esa "Sangloh", shuningdek "Al-lug'at al-lison Navoiy" kabi lug'atlar dunyoga keldi. Ushbu lug'atlarning barchasi Navoiy asarlarini boshqa xalqlar vakillariga tushuntirish maqsadida yaratilgan. Shoir ijodiga bo'lgan qiziqish davr o'tishi bilan yanada ortib bordi. Tarjimachilik rivojlanishi natijasida dunyoning ko'plab xalqlari Navoiyning jozibador asarlarini o'z ona tillarida o'qish imkoniga ega bo'ldilar.

Muhokama

Shoir ijodiga bo'lgan qiziqish davr o'tishi bilan ortib bordi. Tarjimachilik rivojlanishi natijasida dunyodagi ko'plab xalqlar Navoiyning jozibador asarlarini o'z ona tillarida o'qiy boshladilar. Shoir asarlarining inglizcha tarjimalari uzoq tarixga ega. Navoiy asarlari ingliz tiliga turli yo'llar bilan kirib borgan bo'lib, bunda, xususan, boshqa Yevropa tillariga qilingan tarjimalar salmoqli o'rin tutadi. Masalan, bir davrda ruscha tarjimalar vositachilik vazifasini bajargan bo'lsa, keyinchalik shoir asarlari asli nusxadan ingliz tiliga bevosita tarjima qilina boshladi. Bu hol o'zbek turmush tarzi, sharqona urf-odatlar va milliy tafakkurni o'zga yurt kitobxonlariga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Navoiy ijodini ko'plab olimlar tadqiq etib kelmoqda. S. Olimovning nomzodlik dissertatsiyasida Navoiy asarlarining rus, tojik va ozarbayjon tillariga qilingan tarjimalari misolida sharq mumtoz poetikasi, asosan, badiiy san'atlarni qayta yaratish muammolari o'rganilgan. Jumladan, badiiy san'atlar tarjimasining janriy muammolari tahlil etilgan. Shuningdek, S. N. Ivanov, A. A. Klemenko, Q. Jo'rayev, G'. G'ofurova, G'. Salomov singari olimlar ham Navoiy asarlari tarjimalari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, mazkur masalaning muayyan jihatlarini, ya'ni shoirning alohida asarlarining turli tillarga tarjima qilinishini o'rgandilar.

Alisher Navoiy ijodi Yevropaga turli yo'llar bilan kirib borgan. 1557-yili Venetsiyada italyan tilida "Shoh Sarandipning uch navqiron o'g'lonining sarguzashtlari" mazmunidagi bir kitob nashr etilgan bo'lib, unda Xristofor Armaniy tomonidan fors tilidan italyan tiliga qilingan tarjima asos bo'lib xizmat qilgan. Bu kitob Yevropa kitobxonlari orasida katta qiziqish uyg'otdi va 1584-yilda ikki marta bosildi. Keyinchalik 1611, 1622 va 1625-yillarda qayta-qayta chop etildi. 1583-yilda ayni shu italyancha tarjima asosida Iogann Betsil uni nemis tiliga o'girdi. So'ng asar Yevropa bo'ylab keng tarqaldi va nihoyat 1768-yilda ingliz tiliga ham tarjima qilindi. Bundan tashqari, 1719-yilda Fransiyada fransuz tiliga, 1966-yilda esa golland tiliga ham o'girildi.

Mazkur asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Sarandip shohining uch o'g'loni oqil va dono qilib tarbiyalangani hikoya qilinadi. Xristofor Armaniy o'z tarjimasini qaysi asardan o'girganini ko'rsatmagan. Hatto Xristofor Armaniy shaxsiyati haqida ham aniq ma'lumot mavjud

emas. Italyan tilidagi sarlavhada asar “fors tili”dan o‘g‘irilgani qayd etilgan. O‘sha davrda ozarbayjon tili ham ko‘pincha “lingua persiana” deb yuritilgani sababli asarning asl muallifini aniqlash murakkablashgan. Faqat muqaddimada muallif Tabriz shahridan ekani aytiladi. Y. E. Bertels Benfiy asliyat muallifini aniqlashda adashganini izohlar ekan, buning ajablanarli emasligini qayd etadi, chunki Navoiy asarlaridan foydalanilgan qo‘lyozmalar shoir hayotligidayoq Turkiya va Ozarbayjonga yetib borgan va asrlar davomida e‘tiborni tortib kelgan.

Gruzin shoiri Sitsishvilining “Yetti go‘zal” asari ham dastlab Nizomiy asosida yaratilgan deb qaralgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu asarning asl manbasi Navoiy ekanligi aniqlandi. Buni dastlab Y. E. Bertels ko‘rsatgan, keyinchalik K. Kekelidze va V. T. Rudenko to‘liq tasdiqlagan. Bertelsning qayd etishicha, kitobning birinchi qismida Amir Xusravning “Hasht behisht” asari manba bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi qismidagi “Bahrom va Dilorom” voqeasi mutlaqo Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni asosida yaratilgan. Chunki Bahrom va Dilorom voqeasining bunday talqini faqat Navoiy asarida uchraydi, boshqa manbalarda esa hozirgacha topilmagan. Shunday qilib, Xristofor Armaniy Navoiy “Xamsa”siga kirgan “Sab‘ai sayyor” dostoni bilan tanish bo‘lgan va Alisher Navoiy vafotidan 56 yil o‘tiboq uning asarlari italyancha tarjimalar orqali Yevropaga kirib borgan.

Ko‘pgina manbalarda ta‘kidlanganidek, Yevropa mamlakatlarida Alisher Navoiy ijodiga qiziqish asosan XIX asrdan kuchaygan. Jumladan, 1841-yili fransuz sharqshunosi Katremer Eten Mark Alisher Navoiy asarlariga murojaat qilib, shoirning “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Tarixi muluki Ajam” asarlarini fransuz tiliga tarjima qilgan va sharqiy matnlar to‘plamida e‘lon qilgan. 1861-yili esa fransuz sharqshunosi M. Bellning “Navoiy hayoti” nomli maqolasi chop etildi.

Alisher Navoiyning asarlari Yevropa mamlakatlari, xususan ingliz kitobxonlariga yetib borishida vengr turkshunos olimi va sayyohi, Vengriya Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi professor Herman Vamberining (1832–1913) xizmati katta bo‘ldi. U ko‘p tillarni bilgani sababli Navoiy asarlarini nafaqat ingliz tiliga, balki boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qildi. 1863-yili musulmon hoji qiyofasida Eron orqali O‘rta Osiyoga sayohat qilgan olim safardan qaytgach, XIX asrning 60-yillaridagi O‘rta Osiyo xalqlarining tarixiy, ijtimoiy munosabatlari, turmush va madaniy hayoti haqida asarlar yozdi. Vamberi yurtimizning madaniy boyliklarini Yevropa ahliga tanitish maqsadida Navoiy qo‘lyozmalarini izlab Turkiya hududlarini kezzgan va til hamda adabiyotga oid qimmatli manbalarni to‘plagan.

Uning mumtoz turkiy adabiyotdan dastlabki tarjimalari 368 sahifadan iborat “Chig‘atoy darsligi” deb nomlangan majmuaga kiritilgan. Bu kitob tadqiqot, matnlar majmuasi va lug‘at qismlaridan iborat bo‘lib, unda Navoiy “Mahbub ul-qulub” asaridan parchalar, ruboiy va g‘azallardan namunalar berilgan. Vamberi Xivada Alisher Navoiyni o‘zlariga ustoz deb bilgan Munis va Ogahiy bilan muloqotda bo‘lgan, ulardan Navoiy ijodi haqida ma‘lumotlar olgan. O‘rta Osiyoga sayohat qilishidan bir yil oldin, ya‘ni 1862-yilda Vamberi Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan “Abushqa” lug‘atini venger tiliga tarjima qilib nashr ettirgan. Pesht shahrida bosilgan bu kitobga venger tilshunosi Yojef Budens kirish so‘zi yozgan.

Safardan qaytgach, Vamberi o‘z tadqiqotlarini jamlab “O‘rta Osiyo ocherklari” nomli kitobini e‘lon qildi. Biroq undagi ayrim ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmagani sababli tanqidga uchradi. Keyinchalik, 1868-yilda kitobning ikkinchi nashrini amalga oshirib, oldingi xato va kamchiliklarni bartaraf etdi. Kitobning O‘rta Osiyo adabiyotiga bag‘ishlangan bobida Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy va Mashrab g‘azallaridan tarjimalar hamda “Qissasi Sayfulmuluk” asaridan parchalar keltirilgan. Biroq u bu kitobda ham ayrim xatolarga yo‘l qo‘ygan: masalan, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini “Majnun va Layli” deb atagan, “Qissasi Sayfulmuluk”ni esa Navoiy asari deb ko‘rsatgan. N. Ismatillayev ushbu xatolarni tahlil qilib, Vamberi “O‘rta Osiyo ocherklari”ni yozgan davrda Navoiy asarlari bilan hali to‘liq tanish bo‘lmaganini ko‘rsatadi.

Yana bir olim Alfred Kurella Navoiy haqida maqola yozgan. Ushbu maqola “International Literature” jurnalining 7-sonida bosilib chiqqan va keyinchalik L. Koshkina tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. A. Kurella ushbu maqolasida 1940-yilgacha bo‘lgan

davrdagi Navoiy merosiga munosabatni tahlil qilib, shoir ijodini yuksak baholagan. Uning ta'kidlashicha, 1841-yildayoq Yevropa sharqshunoslari buyuk o'zbek mutafakkiri faoliyatini yoritishga bag'ishlangan bir nechta maqolalarni e'lon qilganlar. Biroq ular shoir ijodiga yetarli e'tibor bilan yondashmagan. Holbuki, Alisher Navoiy XIX asr o'rtalaridayoq Yevropada ma'lum darajada tanilgan edi. Parij, London va Vena kabi yirik kutubxonalarda uning she'riy va nasriy asarlari qo'lyozmalari saqlangan. Shunga qaramay, Navoiy ijodi Yevropa sharqshunoslariga forsiy shoirlar darajasida tanish bo'lmagan. Hatto sharq she'riyatidan ilhomlanib "G'arb-u Sharq devoni"ni yaratgan I. V. Gyote ham Navoiy haqida maxsus to'xtalmagan.

Ikkinchi jahon urushi tufayli Navoiy tavalludining 500 yilligi 1941-yilda emas, 1948-yilda nishonlandi. O'zbekistonda bu tantanaga katta tayyorgarlik ko'rildi. Yubiley arafasida shoirning eng sara asarlari jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilindi. Shoir yubileyiga bag'ishlangan tadbirlar bir necha kun, hatto oylar davomida davom etdi. 1968-yilda Navoiyning 100 ta hikmatli so'zi jamlangan kichik kitobcha nashr qilindi. Hamid Sulaymon muharrirligida tayyorlangan ushbu kitobda shoirning turli asarlaridan olingan eng yaxshi hikmatli so'zlari jamlangan bo'lib, ular hozirgi va eski o'zbek yozuvida, shuningdek ingliz, rus, fors, nemis, fransuz, italyan va yapon tillarida berilgan.

1989-yil 10-mayda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi kotibiyati yig'ilishida Alisher Navoiy tug'ilgan kunining 550 yilligini nishonlash bilan bog'liq masalalar keng muhokama etildi. Unda shoir hayoti va ijodini keng targ'ib qilish, asarlarini chop etish, yubiley tadbirlarini katta umumxalq bayramiga aylantirish zarurligi ta'kidlandi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Badiiy tarjima va adabiy aloqalar markazi tashabbusi bilan Alisher Navoiyning ko'plab asarlarini turli tillarga tarjima qilish maqsadida maxsus tadbirlar rejalashtirildi. 1991-yilda navoiyshunos Suyima G'aniyeva Navoiyning "Munojot" asari matnini nasr yo'li bilan hozirgi o'zbek va rus tillariga o'girdi hamda ushbu tarjimalar bilan birga shu yili boshqa tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan ingliz, rus va nemis tillaridagi tarjimalarni ham bir kitob holida chop ettirdi. Shu tariqa, Navoiy asarlarining ingliz tiliga tarjimalari XIX asrning ikkinchi yarmigacha asosan Yevropada yashovchi shoir ijodiga qiziquvchilar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik O'zbekiston olimlari va tarjimonlari tashabbusi bilan ham izchil davom ettirildi.

O'zbek adabiyoti namunalarining ingliz tiliga qilingan ilk tarjimalari, tabiiyki, Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Buyuk mutafakkirning "Lison ut-tayr" dostoni E. Fitsjerald tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinib, 1899-yilda AQShning Boston shahrida nashr etilgan. Xuddi shu asarning nasriy bayoni kanadalik tarjimon Garri Dik tomonidan o'zbek tarjimashunos olimi N. Qambarov hamkorligida ingliz tiliga o'girilgan. "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasi Robert Devereux tarjimasida 1966-yilda AQShda kitob holida bosilib chiqqan. Buyuk shoirning "Sab'ai sayyor" dostoni esa amerikalik professor V. Firman tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. 1988-yilda O'zbekiston "Vatan" jamiyati Alisher Navoiyning hikmatlarini Margaret Bettlinning inglizcha tarjimasida lotin alifbosida nashr etdi. 1961-yilda Toshkentda chop etilgan "Uzbekistan Speaks" nomli inglizcha to'plamga esa Alisher Navoiyning g'azallari, ruboiylari, hikmatlaridan namunalar hamda "Farhod va Shirin" dostonidan parcha kiritilgan.

Xulosa

Alisher Navoiy asarlarining tarjima tarixi juda boy va murakkab jarayonni tashkil etadi. Chunki davrlar osha nafaqat adabiyotda, balki madaniy sohalarida ham G'arbning Sharqqa bo'lgan qiziqishi ortib borgan va natijada Navoiy asarlari bosqichma-bosqich turli tillarga tarjima qilina boshlagan. Xususan, A. Kurella va Herman Vamberi faoliyati davrida bu qiziqish yanada kuchaydi va Navoiy asarlari nafaqat Yevropaga, balki butun dunyoga yoyila boshladi. Bunga yaqqol misol sifatida "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasining Robert Devereux tarjimasida 1966-yilda AQShda kitob holida nashr etilgani, shuningdek buyuk shoirning "Sab'ai sayyor" dostoni amerikalik professor V. Firman tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinganini keltirish mumkin. Demak, Alisher Navoiy merosi jahon madaniyati xazinasining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning ingliz tiliga

tarjima qilinishi sharq adabiyoti va o'zbek mumtoz merosining xalqaro miqyosda tanilishida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бертельс Е. И. Навои: жизнь, творчество и мировоззрение. – М., 1948.
2. Jo'rayev Q. Navoiy asarlari tarjimalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar. – T., 1988.
3. G'ofurova G'. Tarjimashunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar va tarjimaning texnik tamoyillari. – T., 1976.
4. Olimov S. Navoiy asarlarini rus, tojik va ozarbayjon tillariga tarjima muammolari: дис. ... канд. филол. наук. – T., 1989.
5. Salomov G'. Til va tarjima nazariyasi masalalari. – T., 1966.
6. Иванов С. Н. Навои Алишер. Избранное / пер. и вступ. ст. С. Н. Иванова. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1996.
7. Клеменко А. А. Газели Алишера Навои в русских переводах. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1986.